



BOLALARGA LUG‘AT O‘RGATISHDA TURLI METOD VA MASLAHATLAR HAMDA ULARNI BILIM OLIHGGA QIZIQTIRISH

Ramazonova Dilnura Farhodovna

*Samarqand Davlat Chet tillar instituti
talabasi*

Ilmiy rahbar: Zubaydova Nilufar

***Annotatsiya:** Ushbu maqola kichik va o‘rta yoshli bolalarning til o‘rganish davomida yangi lug‘atlarni tez va oson o‘rganish uchun turli metod va samarali usullar, hamda bilim olish jarayonida atrof-dagilarning, asosan ota-onalarning o‘rni haqida ma‘lumotlarni beradi.*

***Kalit so‘zlar:** Lug‘at, uning mohiyatini anglash, so‘zni kundalik hayotda qo‘llash, “Oscar Akademiyasi”, “InterFaol” metodi.*

Bugungi rivojlanib borayotgan dunyoda, yangi til o‘rganishga bo‘lgan qiziqish va talabalar kundan-kunga ko‘paymoqda desak mubolag‘a bo‘lmaydi. Shu jumladan, “Til bilgan-el biladi” degan maqol ham bejizga emas. Biz bilamizki, til o‘rganish nafaqat o‘smirlar va katta yoshdagi insonlar o‘rtasida balki endi o‘sib-ulg‘ayayotgan o‘spirinlar o‘rtasida ham keng ildiz yoymoqda. Lekin biz bu til o‘rganish davomida bir qancha muammolarga duch kelamiz. Jumladan, yosh bolalarda yangi so‘z va lug‘atlarni o‘rganish va ularni eslab qolish eng muammoli vaziyatlardan biri hisoblanadi. Va shunday holatda bolalarga qanday yordam berishimiz mumkin?

Deyarli barcha bolalar yoshligida har bir narsaga qiziquvchan, sho‘x va o‘yinqaroq bo‘lishadi. Aynan shu sababli ham ularga lug‘atlarni oddiy usulda ya‘ni “bu so‘zning tarjimasi -mana shunday bo‘ladi” deyish bilan o‘rgata olmaymiz. Chunki ular bu usul orqali so‘zni xotiralarida tezda, uzoq vaqtga saqlab qololmaydilar. Shu sababli ham turli xil metodlardan foydalanish, ishimizni oson qilishi mumkin.

Masalan, yosh bolalar bilan o‘sha lug‘atga aloqador birorta o‘yin o‘ynash va shaxsiy namuna va harakatlar yordamida lug‘atni tez-tez takrorlash orqali bolaning ongiga singdirish mumkin. Va ko‘ribsizki, bola kun bo‘yi o‘sha so‘zni o‘yin davomidagi harakatlar bilan takrorlab, aydin yuradi va natijada eslab qolishadi.

Xalqimiz orasida: “Kimlar o‘qib, kimlar ko‘rib o‘rganadi” degan naql ham bor. Ya‘ni ba‘zi bir odamlar ko‘rganini, ba‘zilari esa eshitganlarini xotirasida yaxshi saqlab qoladi.

Bugungi kunda, ta‘lim jarayonida yangi so‘zlarni turli xil usullar bilan o‘rgatish bo‘yicha “OSCAR AKADEMIYASI” yetakchi o‘rinda turadi. Va bu akademiyaning lug‘at o‘rgatish bo‘yicha keng tarqalgan metodlaridan biri “InterFaol” metodi



sanaladi. Ya'ni bu metodda bitta so'z olamiz(asosan jadval ko'rinishida yozish maqsadga muvofiqroq),masalan "cucumber" so'zi,eng avval bu so'zning o'qilishini o'rganamiz [kju:k^mbə].So'ng tarjimasini yozamiz "bodring". Keyingi navbatda esa shu so'z qatnashgan gap tuzamiz,agar bu so'zimiz qanchalik qiziqarli va kulgili bo'lsa, xotiramizdan chiqib ketmaydi, ya'ni shu so'zni eshitganimizda,o'sha misol esimizga keladi va ayta For example:"I ran away with the cucumber that my sister put in her eyes"(Opam ko'zlariga qo'ygan bodringini olib qochdim).

Lug'atni yana ham yaxshiroq eslab qolish uchun o'sha so'zning rasmini chizish ham o'rinli.Ba'zilar rasmni yaxshi chizolmasliklarini aytishadi.Lekin bu lug'atdagi rasmni xuddi rassomlarday chizish shart emas, shunchaki, qo'llaridan kelganicha harakat qilib,chizishning o'zi yetarli.

Shu usullar orqali lug'atni xotiraga tez va tasvirli qilib muhrlash mumkin.

Bundan tashqari, bolalarning til o'rganish va umuman bilim olishda ularga to'sqinlik qilayotgan eng dolzarb muammolardan biri, "bolani boshqa bir bolaga taqqoslash".Chunki bunday sharoitda bolada ishtiyoq emas,battar tushkunlik hissi paydo bo'la boshlaydi.Sababi hamma ham bir xil emas.Har bir shaxsning o'z dunyosi,qiziqishi va xohishlari Shuning uchun ota-onalar farzandlarini boshqa tengqurlari bilan taqqoslagandan ko'ra, yoshlik davridanoq ularga to'g'ri maslahatlar berishlari kerak.

Agar til o'rganayotgan shaxs katta yoshdagi bolalar bo'lsa,ularga til o'rganishning foydali tomonlari haqida gapirib berishlari va ularning o'zlariga va o'rganishga bo'lgan ishonch hissini yanada oshirish kerak. Va eng asosiysi, farzandlarining o'qishini, baholarini kuzatib,ularga e'tiborli bo'lishlari kerak.

Bu davrda til o'rganayotgan yoshlarga kundalik hayotlarida o'zlari yoqtirgan mashg'ulotlari,jumladan qo'shiq eshitish, kompyuter o'yinlarini o'ynash va tomosha qilayotgan multfilm yoki kinolarini ham yangi o'rganayotgan tillarida bajarsalar yoki kuzatsalar tilni o'rganish yana ham osonlashadi. Ya'ni shu usul orqali bolani til o'rganishga ishqiboziga aylantirish mumkin.

Xulosa o'rnida shuni aytish kerakki, o'sib-rivojlanib borayotgan yosh o'spirin va o'smirlarga to'g'ri yo'l ko'rsatib, bilim o'rganishlari uchun yaxshi shart-sharoitlar qilib,ularni qo'llab-quvvatlashning o'zi yetarli.Chunki bu yoshdagi bolalarnig psixologiyasi uchun maqtovlar va motivatsiyalar bo'lsa kifoya.

Yodda tuting! Sizning farzandingiz boshqalar kabi emas.Ular turfa qiziqishlar va keng bo'lmasa-da rivojlanish ostonasidagi dunyoqarash sohibidir!



References:

1. R. A Utkurovich, R. G Utkurovna. "Teaching English Language To Primary Level Pupils At School" Ijodkor O'qituvchi 3 (36), 103-105, 2024.
2. M. Berdiyeva, S. Bo'ranova Maktabgacha va boshlang'ich ta'limda nutq o'stirish mashg'ulotlari orqali bolalarning mustaqil fikrlash qobiliyatlarini shakllantirishning samarali usullari.
3. M Orzikulova, G Rustamova "Methods Of Improving Speaking Skills For Kids" Conference Proceedings: Fostering Your Research Spirit, 151-154, 2024.
4. N.N. Zubaydova The importance of teaching vocabulary. International conference Bridge to science: Research works 100 (November 15 2019) San Francisco, USA.
5. qizi To'yeva, M. S. (2022, November). Yangi O'zbekiston Orifa Ayollari Va G'arb Ayollarining Jamiyatdagi Mavqeyi Va Ularning Huquqlari. In International Conferences (Vol. 1, No. 2, pp. 74-81).
6. Нуриллаев, Ж. Я., Нуриллаев, Х. Ж., Бердимуродова, Ф. П., & Мухамадиев, Н. К. (2023). Оценка Лечебных И Метафилактических Мероприятий При Мочекаменной Болезни В Зависимости От Состава Камня. Медицинский вестник Башкортостана, 18(1 (103)), 24-28.
7. Makhmudova, G. N., & Gulomova, N. F. (2023). Unlocking the potential of the digital economy in the EAEU countries: identifying and overcoming obstacles. *π-Economy*, 16 (4), 7–25. DOI: <https://doi.org/10.18721/JE,16401>.
8. Гуломова, Н. (2022). Основные компоненты развития «умного» туризма в регионах. Направления развития благоприятной бизнес-среды в условиях цифровизации экономики, 1(01), 63-67.
9. Makhmudova, G., Gulomova, N., & Mirzaev, D. (2022). Legal aspects of cryptocurrency and blockchain technologies: Uzbekistan and foreign experience.
10. Jumayeva, M. (2022). Analysis Of The Views Of Scientists Of The Renaissance, Based On A Unique Approach To Pedagogy And Education And Upbringing. *Science and Innovation*, 1(5), 26-29.
11. Bekzodovna, J. M., & Akbarovna, D. G. (2023). Innovative Methods and Tools in Higher Education. *Science and Innovation*, 2(11), 708-715.
12. Jumayeva, M., & Jumatova, B. (2023). Linguopragmatic Features Of Expressions Expressing Feelings In Uzbek And English Literary Texts. *Science and innovation*, 2(C12), 166-169.
13. Dadaboyev, H., & Xolmanova, Z. T. (2015). Turkiy tillarning qiyosiy-tarixiy grammatikasi. Toshkent: Ilm Ziyo Nashriyot Uyi, 22.
14. Xolmanova, Z. Eski o'zbek tiliga xos ayrim leksemalar semantikasi va lingvokulturologik xususiyatlari. *O'ZBEKIST*, 38.
15. Jumayeva, M. B. (2023). Classifications of Cardinal Numbers and Ordinal Numbers in English And Uzbek. *Ijtimoiy Fanlarda Innovasiya Onlayn Ilmiy Jurnali*, 3(2), 132-134.



16. Mohira, J. (2023). Problematic Situations That Arise in Learning Foreign Languages and Their Solutions. *International Journal of Recently Scientific Researcher's Theory*, 1(2), 414-417.
17. Jumayeva, M. B. (2023). Chet Tillarini O'rganishda Ommaviy Axborot Vositalarining O'rni va Ahamiyati. *Boshqaruv va Etika Qoidalari Onlayn Ilmiy Jurnal*, 3(5), 240-242.
18. Sattarova, D. (2024). Siyosiy Muloqotning Pragmatik Aspektlari. *Tamaddun Nuri Jurnal*, 5(56), 380-383.
19. Axmedova, D., & Zarmaskhonov, S. (2024, February). Exploring Global Perspectives In Language Teaching And Learning. In *Conference Proceedings: Fostering Your Research Spirit* (pp. 205-207).
20. Sattarova, D. (2024, January). Siyosiy Notliqlikning Milliy Madaniy Va Lisoniy Tahlili (O'zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidenti Ia Karimov Nutqlari Asosida). In *Международная конференция академических наук* (Vol. 3, No. 1, pp. 5-7).
21. Sattarova, D. (2023). Komunikativ Diskursning Tadqiqot Ob'yekti. *Молодые ученые*, 1(22), 41-43.
22. Suleymanova, N. M. (2020). On The Nominative Nature Of The Sentence. *Theoretical & Applied Science*, (4), 307-309.
23. Сулейманова, Н. М. (2017). Номинативный аспект речевого процесса. In *Humanities and Social Sciences in Europe: Achievements and Perspectives* (pp. 76-82).
24. Sharipovna, R. S. Peculiarities Of Teaching English In Secondary Schools In Uzbekistan. *International Journal of Innovations in Engineering Research and Technology*, (2), 1-5.
25. Suleymanova, N. M., & Idiyev, A. R. O. G. L. (2021). Gapning Nominativ Aspekti Va Uning Kommunikativ Jarayoni Haqida. *Academic research in educational sciences*, 2(12), 805-809.
26. Sharifovna, R. S. (2022). Class Size And The Learning-Teaching Process In Upper Classes. *Journal of new century innovations*, 14(1), 86-98.
27. Сулейманова, Н. М., & Абдуллаева, Л. Т. (2017). Имманентный характер синергетических свойств единиц языковой системы. In *Инновации В Современном Языковом Образовании* (pp. 61-65).